

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2025 № 3-4 (30-31)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2025 № 3-4 (30-31)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” International journal


<p>Tahrir kengashi Abdildina, R.J. - Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor Mamedzade, I.R. - Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor Skarantino, L.M. - Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. - Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya FA prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. - Qozog'iston FA muxbir a'zosi, f.f.d., professor Tsuy Veyxan - Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. - Rossiya FA Falsafa institute professori, f.f.d., (Rossiya)</p> <p>Muassislar: Mirzo Ulugbek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti O'z.RV M huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers МЧЖ Elc.uz</p> <p style="text-align: center;">Ro'yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.</p>	<p>Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. - f.f.d., professor (O'zbekiston) Bosh muharrir o'rinbosari: Aslanova R. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas'ul muharrir: Muhamedova Z.M. – f.f.d., prof. (O'zbekiston) Tahrir hay'ati: Allahyarova, T., - f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., - s.f.d., professor (Qozog'iston) Abasov, A.S. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Buzarinejad, Y. - PhD, dotsent, Tehron universiteti Alborz fakulteti dekani; (Eron) B.K. Santosh Kukreja, - DS professor (Hindiston) Bilalov, M.L., - f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Kerimov E. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Gezalov, A.A., - f.f.n., professor (Rossiya) Olatunji Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Pardayev S.P. – falsafa doctori PhD, (O'zbekiston) Tulenova G. J - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tesdelen, Vefa, - f.f.d., professor (Turkiya) To'rayev, B.O., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tyukmaeva A.M. – falsafa doctori PhD (O'zbekiston) Kurmangalieva, G. K., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Qurbonova L.A. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Xudoydodzoda F.B., - f.f.d., professor (Tojikiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O'zbekiston) Xudoyberganov R. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Mahmadizoda N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. Hakimoglu - PhD filos., professor (Turkiya) Paxruddinov, Sh.I.- s.f.d., professor (O'zbekiston) Sergeev, M.Y., - professor (AQSH) Sagikizi A.- f.f.d., professor (Qozog'iston) Urmanbetova, J.K., - f.f.d., professor (Qirg'iziston) Chjan Baychun, - f.f.d., professor (Xitoy) Shadmonov, Q., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg'iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa doctori PhD, dotsent (O'zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. (O'zbekiston) Po'latov A. (O'zbekiston)</p>
--	--

MUNDARIJA
SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjanovich	RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIIY ONG DINAMIKASI	9-19
Qosimova Nazira Omurqulovna	GARMONIYA VA HAMKORLIK: DIPLOMATIYANING AYOLLAR O‘LCHOVI	20-30
Rasulov Rustambek Odilovich	AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SIYOSIIY MAFKURALAR TARG‘IBOT METODOLOGIYALARINING O‘ZGARUVCHALIGI	31-37
Shayildayeva Asel Kokoyevna	XALQ DIPLOMATIYASIDA AYOLLAR YETAKCHILIGI: MAS‘ULIYAT VA G‘AMXO‘RLIK FALSAFASI TA‘LIM VA FAN FALSAFASI	38-45
Qurbonova Lolaxon Abduxadimovna	ELITAR TA‘LIM MODELLARIGA SUN‘IY INTELLEKTNING INTELLEKTUAL VA MA‘NAVIY TA‘SIRI	46-53
Xaydarova Aqida Xurramovna	TANLANISH MEXANIZMI VA EPISTEMOLOGIK RATSIOANALLIK DIALEKTIKASI	54-60
Usmonov Muxriddin Abdimuradovich	IDROKNING TAFAKKUR USLUBINING ONTOLOGIK POYDEVORI SIFATIDAGI MOHIYATI VA UNING ONG - BORLIQ O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TUSHUNISHDAGI AHAMIYATI	61-75
Shermuhamedova Niginaxon Arslonovna	SINERGETIK VA DIALEKTIK TAFAKKUR VA ULARNING MURAKKAB TIZIMLARNING RIVOJLANISHINI TUSHUNISHDA ROLI FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI	76-85
Pardayev Sultonmurod	DUNYONING ILMIY MANZARASI EVOLYUTSIYASINING KLASSIK, NOKLASSIK VA POSTNOKLASSIK DAVRLARI VA ULARNING O‘ZARO TA‘SIRI	86-96
Qodirov Javlonbek Abdusattor o‘g‘li	ZAMONAVIIY FALSAFADA ONGGA OID POSTMODERN VA NEYROFALSAFA SOHALARIDAGI QARASHLAR DINAMIKASI	97-104
Sapayev Valisher Odilbek o‘g‘li	SUN‘IY INTELLEKT FENOMENINING IJTIMOIIY JARAYONLAR BILAN BOG‘LIQ JIHLTLARI VA UNING MAFKURAVIIY AHAMIYATI DUNYO MADANIYATI VA DINIIY AN‘ANALAR	105-116
Alaje, Olubunmi Oyebola	FATOU FANNY-CISSÉ‘NING “MADAME LA PRÉSIDENTE” ASARIDA MISTITSIZM, GENDER ASOSIDAGI KUCH VA YETAKCHILIKNING ETNOLINGVISTIK TASVIRI	117-132
Qudratov Siroj Xolmatovich	MILLIIY VA GLOBAL TAJRIBALAR ASOSIDA YOSHLAR AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	133-145

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI
ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ И ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ
HISTORY OF PHILOSOPHY AND PHILOSOPHY OF HISTORY

UDK: 128:141.7:159.9

 10.5281/zenodo.18734226

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

o'qituvchi tadqiqotchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Elektron manzil: javlonkodiurov06@gmail.com

ORCID: 0000-0002-5429-2112

(Toshkent, O'zbekiston)

**ZAMONAVIY FALSAFADA ONGGA OID POSTMODERN VA
NEYROFALSAFA SOHALARIDAGI QARASHLAR DINAMIKASI**

Annotatsiya. Zamonaviy falsafada ong muammosi klassik metafizik yondashuvlardan postmodern diskursiv talqinlar va neyrofalsafaning ilmiy-empirik konsepsiyalarigacha bo'lgan murakkab evolyusion jarayonni boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayonda ongni tushunish falsafiy refleksiya bilan neyrobiologiya va kognitiv fanlar o'rtasidagi integratsiya asosida shakllanmoqda. Biroq postmodern falsafadagi nisbiylikka asoslangan yondashuvlar bilan neyrofalsafaning reduksionist pozitsiyalari o'rtasida jiddiy nazariy va metodologik muammolar mavjud. Mazkur tadqiqotning vazifasi ushbu qarashlarni qiyosiy tahlil qilish hamda ong haqidagi zamonaviy falsafiy tasavvurlar dinamikasini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Ong, postmodern falsafa, neyrofalsafa, diskurs, neyrobiologiya, falsafiy tahlil.

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ong muammosi falsafada yangi nazariy paradigmalarda doirasida qayta ko'rib chiqila boshlandi. Agar klassik falsafada ong, asosan, ontologik va gnoseologik kategoriya sifatida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda u ijtimoiy, diskursiv, neyrobiologik va texnologik jarayonlar kesishmasida shakllanuvchi murakkab va dinamik fenomen sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, postmodern falsafa va neyrofalsafa ong muammosini tushunishda o'zaro farqli, biroq o'zaro bog'liq yondashuvlarni taklif etmoqda.

Postmodern falsafada ong yaxlit va barqaror mohiyat sifatida emas, balki parchalangan, kontekstga bog'liq va turli interpretatsiyalarga ochiq tuzilma sifatida talqin etiladi. Bu yondashuvda subyekt ham mutlaq markaz maqomini yo'qotib, turli ijtimoiy, madaniy va til diskurslari ta'sirida shakllanuvchi konstruksiya sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy tahlillarda "ong

sanoati” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. U inson ongining ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar va ideologik mexanizmlar orqali maqsadli shakllantirilishini ifodalaydi. Neyrofalsafa esa ong muammosini miya faoliyati, neyron jarayonlar va kognitiv mexanizmlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Ushbu yo‘nalishda ong iroda yoki ma‘naviy markaz sifatida emas, balki miyada kechadigan murakkab neyrodinamik jarayonlarning natijasi sifatida izohlanadi. Biroq bunday tabiiy-ilmiy yondashuv ongning madaniy, tarixiy va sivilizatsion jihatlarini inkor etmasdan, aksincha, ular bilan uyg‘un holda tahlil qilinishi lozim.

MATERIALLAR VA METODLAR

Ong muammosiga zamonaviy postmodern falsafa, neyrofalsafa va ijtimoiy-falsafa sohasi vakillari turli yondashuvlarni ilgari surgan. Masalan A. Nыsanbaev ongni individual psixik hodisa sifatida emas, balki madaniyat, til va tarix orqali shakllanuvchi sivilizatsion voqelik sifatida talqin qilgan [Nisanbayev, 2010, c.23]. Ushbu konsepsiya neyrofalsafada keng tarqalgan reduksionist modellarni madaniy-falsafiy tahlil bilan boyitish zarurligidan dalolat beradi. Zamonaviy raqamli muhitning inson ongiga ta‘sirini ochib beruvchi postmodern tahlillar, jumladan, Başer, inson ongining parchalanishi va ichki barqaror markazini yo‘qotayotgani haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan, uning bu g‘oyalari zamonaviy sub‘ekt inqirozini tushinishda muhim metodologik ahamiyatga ega [Başer, 2015, b.45]. I.Mamedzade ong va identifikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi konsepsiyalarning inson ongining turli identifikatsiya modellari o‘rtasida qolib ketish xavfini tahlil qilgan [Məmmədžadə, 2017, b.56]. Shuningdek, Ilenkov, shubha fenomenini ongni rivojlantiruvchi intellektual mexanizm sifatida talqin qilgan va u ta‘lim va tarbiya jarayonida ishonch bilan bir qatorda skepsisning ahamiyatini ta‘kidlovchi falsafiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilgan [Ilenkov, 1984]. Ushbu metodologik pozitsiya inson ongining “intellektual immuniteti”ni shakllantirishda muhim vosita sifatida hisoblanadi.

Inson ongining ijodiy salohiyati va qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda psixologik-falsafiy yondashuvlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan Zinchenko, ongning murakkablashuvi zamonaviy jamiyatda qadriyatlarining asosan ommaviy axborot vositalari orqali shakllanayotganini asoslagan [Zinchenko, 2002], uning fikricha qadriyatlar inson va jamiyat hayotida ma‘no baxsh etuvchi ijtimoiy mezonidir. Ong shakllanishida qadriyatlar ta‘sirini tahlil qiluvchi sotsiologik yondashuvlar ham tadqiqot metodologiyasining muhim qismi hisoblanadi. Qadriyatlar anarxiyasi va to‘liq nazorat ostidagi jamiyat kabi ikki xavfli holatni ajratib ko‘rsatuvchi konsepsiya inson ongini manipulyatsiya qilish mexanizmlarini ochib berishda qo‘llanildi [Mannheim, 1936]. Bu jarayon marksistik an‘ana doirasida jamiyatda hukmron g‘oyalarning iqtisodiy asoslari bilan bog‘langan [Marx, 1846].

Tadqiqotda bilim, ta‘lim va ong o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berish uchun sivilizatsion va ijtimoiy-falsafiy tahlil usullaridan foydalanilgan, zeo Lektorskiy ta‘kidlaganidek bilimni sivilizatsiyaning mavjudlik sharti sifatida

baholovchi yondashuvlar tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi [Lektorskiy, 2012]. Shuningdek, Kara-Murza, bilim mafkuraviy qurolga aylanish xavfiga ham egaligini asoslagan [Kara-Murza, 2009]. Inson ongini madaniy-tarixiy tajriba mahsuli sifatida talqin qiluvchi konsepsiyalar tafakkurning ijtimoiy muhitdan uzilmasligini asoslashda qo'llanilgan [Qasimjanov, 1998]. Shuningdek, tarbiya va ong masalasini millat taqdiri bilan bog'lagan ma'rifiy-falsafiy meros ham tadqiqotda muhim manba sifatida xizmat qilgan [Avloniy, 1917]. Umuman olganda, tadqiqotda qiyosiy tahlil, fanlararo yondashuv, tarixiy-falsafiy rekonstruksiya va tanqidiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu usullar zamonaviy postmodern va neyrofalsafa doirasida ong haqidagi qarashlarni kompleks tahlil qilish imkonini bergan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, inson ongini uning mohiyatining namoyon bo'lishi sifatida o'ziga xos energiya deb talqin qilish mumkin. Bunday yondashuvda ta'lim tizimi aynan shu energiyani shakllantirish, rivojlantirish va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish uchun javobgar bo'lgan asosiy ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Aql insonga tabiatan tayyor holda berilmaydi, balki u uzoq muddatli ijtimoiy tajriba, mehnat va tarbiya jarayonida shakllanadi. E.V. Ilenkov ta'kidlaganidek, insonga faqat aql uchun imkoniyat yaratib berilgan bo'lib, uning rivojlanishi ijtimoiy muhit va shaxsning faol ishtirokisiz mumkin emas [Ilenkov, 1984, p.112.]. Bu nuqtai nazar ongni biologik determinizm doirasida tushuntiruvchi neyrofalsafiy reduksionizmga muqobil ravishda, onging ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib beradi.

Ijtimoiy voqelik inson ongini ikki xil yo'nalishda, yo ijodiy, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida, yoki passiv, boshqariladigan omma qismi sifatida shakllantirishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, ta'limning tijoratlashuvi va mfakuralashuvi yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim muassasalari iqtisodiy bosim ostida qolib, ko'p hollarda bilim sifati emas, balki moliyaviy barqarorlikni ustuvor qiymat sifatida belgilamoqda. Natijada sifatli ta'lim asosan iqtisodiy jihatdan ta'minlangan qatlam farzandlari uchun ochiq bo'lib, kam ta'minlangan yoshlar ijtimoiy rivojlanish mexanizmlaridan mahrum bo'lmoqda. Bu holat jamiyatning kelajak intellektual salohiyati uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Shu nuqtai nazardan Karl Manxeymning ta'lim tizimini jamiyatdagi ijtimoiy harakatlar va mafkuraviy qarama-qarshiliklarning "miniatyurasi" sifatida baholagan [Mannheim, 1936, p. 87]. Uning fikricha, kim yosh avlod ongini shakllantirsa, kelajak ijtimoiy jarayonlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu qarash K. Marksning hukmron g'oyalar iqtisodiy jihatdan ustun sinf manfaatlarini ifodalashi haqidagi tezisi bilan metodologik jihatdan uyg'undir [Marx, 1846, p.64]. Bu yondashuvlarga ko'ra, Marks iqtisodiy determinantlarga urg'u bergan bo'lsa, Manxeym ta'lim va bilimni mafkuraviy kurashning markaziy maydoni sifatida talqin qiladi. Bunday sharoitda inson ongini manipulyatsiya qilish mexanizmlariga qarshi turish falsafa, sotsiologiya va pedagogikaning muhim

vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ta'lim insonni ijtimoiylashtirishning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Yan Amos Komenskiy ilgari surgan pancofik ta'lim g'oyasi insonni har tomonlama aqliy, axloqiy va ma'naviy jihatdan kamol toptirishni maqsad qilgan [Comenius, 1657, p. 41]. Ushbu yondashuv Platonning ta'limda majburlash emas, balki insonning tabiiy moyilliklarini hisobga olish haqidagi fikrlari bilan qiyosiy jihatdan mushtarakdir [Plato, 1997, p. 75].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy falsafada tafakkurning o'zgaruvchan, sub'ektiv va ijtimoiy shartlangan tabiatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Agar Parmenid borliqni abadiy va o'zgarmas deb talqin qilgan bo'lsa, XX asrda M. Xaydegger ontologiyani inson mavjudligi bilan chegaralab qo'ygan [Heidegger, 1962, p.33]. Natijada klassik "birlik ontologiyasi" o'rnini "farq ontologiyasi" egallagan. Bu yondashuv individual tajriba, farq va noaniqlikka urg'u berishi bilan postmodern falsafiy tafakkurga asos bo'ldi.

Shu bilan birga, virtual muhit, mifologik ong unsurlari va mistitsizm inson ongini manipulyatsiya qilishning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. K.G. Yung ta'kidlagan "soya" arxetipining faollashuvi jamiyatda tajovuzkorlik va asotsial xatti-harakatlarning kuchayishi bilan namoyon bo'ladi [Jung, 1968, p.120]. Bilim sotsiologiyasi vakillari M. Sheler, P. Berger va T. Lukman bilimning ijtimoiy shartlanganligini asoslab, uni ham ijtimoiy mahsulot, ham ijtimoiy o'zgarish omili sifatida talqin qiladilar [Berger, Luckmann, 1966, p.67]. Shu bilan birga, inson ongida ichki erkinlik va individual qayta ishlash mexanizmlari mavjudligi tafakkurning ijodiy va takrorlanmas tabiatini ko'rsatadi.

M.K. Mamardashvili ta'kidlaganidek, tafakkur muammosi aslida inson mavjudligining o'zi bilan bog'liq bo'lib, u har bir shaxsning ichki intellektual mehnati natijasidir [Mamardashvili, 1990, b.54.]. Bu qarash neyrofalsafadagi biologik determinizmdan farqli ravishda, ongning ekzistensial va ma'naviy o'lchamlarini ochib beradi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi faqat bilim berish instituti emas, balki inson ongini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va intellektual elitani vujudga keltirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sohasidagi tijoratlashuv, ijtimoiy tengsizlik va ideologik bosim jamiyatning kelajak intellektual salohiyatiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois ta'lim tizimini isloh qilish inson ongini manipulyatsiya qilish mexanizmlarini chuqur ilmiy-falsafiy tahlil qilish hamda tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab etadi.

Raqamli sivilizatsiya shakllanishi bilan inson ongi falsafiy tahlilning mutlaqo yangi ma'no kasb etmoqda. Agar industrial jamiyatda ong asosan mehnat, ijtimoiy sinf va mafkura bilan bog'liq holda talqin etilgan bo'lsa, raqamli davrda u axborot oqimlari, algoritmlar va sun'iy intellekt tizimlari bilan uzviy bog'liq fenomenga aylanmoqda. Bu holat postmodern falsafada ongning parchalanishi haqidagi tezislarni yanada kuchaytirib, neyrofalsafada esa ongning neyrobiologik asoslarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda.

Postmodern falsafada raqamli muhit ongning fragmentatsiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Agar klassik postmodern nazariyalarda subyekt til va

diskurs ta'sirida parchalangan bo'lsa, bugungi kunda u algoritmik diskurslar ta'sirida qayta shakllanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, media platformalar va raqamli identifikatsiya tizimlari inson ongini barqaror "men" atrofida emas, balki doimiy ravishda yangilanuvchi obrazlar va rollar tizimi atrofida tashkil etmoqda. Natijada ongni yaxlit ontologik asos sifatida emas, balki "profillar", "avatarlar" va raqamli reprezentatsiyalar yig'indisi sifatida talqin qilish jarayoni kuchaymoqda.

Neyrofalsafada esa raqamli sivilizatsiya ta'sirida ong va texnologiya o'rtasidagi chegaralar tobora yo'qolib bormoqda. Neyrointerfeyslar, sun'iy intellekt va kognitiv texnologiyalar inson miyasi faoliyatini nafaqat tadqiq etish, balki unga faol ta'sir ko'rsatish imkonini bermoqda. Bu holat ongni faqat tabiiy neyron jarayonlar mahsuli sifatida emas, balki "gibrid" biologik va texnologik tizimlar o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qilishga olib kelmoqda. Bu neyrofalsafada ongning avtonomligi haqidagi klassik savolni qayta kun tartibiga qo'yimoqda.

Raqamli sivilizatsiya sharoitida ong muammosining yana bir muhim jihati diqqat fenomeni bo'lib, axborotning ortiqcha hajmi inson ongining chuqur mushohada qilish qobiliyatini zaiflashtirib, qisqa muddatli, fragmentar va reaktiv tafakkurni shakllantirmoqda. Bu holat postmodern falsafada ta'kidlangan "yuzaki ma'no" ustuvorligi bilan mos keladi, neyrofalsafada esa diqqat va xotira mexanizmlarining neyron asoslarini qayta o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamli muhitda ongning emotsional tuzilmasi ham o'zgarmoqda. Layk, reyting, algoritmik baholash tizimlari inson his-tuyg'ularini tashqi rag'batlar bilan bog'lab qo'yimoqda. Bu esa neyrofalsafada emotsiya va motivatsiya mexanizmlarining sun'iy rag'batlar ta'sirida qanday transformatsiyaga uchrayotganini tahlil qilishni talab etadi. Postmodern falsafada esa bu jarayon inson sub'ektivligining "bozorlashuvi" sifatida talqin qilinishi mumkin.

Nihoyat, raqamli sivilizatsiya ong va mas'uliyat muammosini ham qayta shakllantirmoqda. Agar klassik falsafada mas'uliyat avtonom sub'ektga bog'langan bo'lsa, algoritmlar qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilgan sharoitda "kim javobgar?" degan savol ochiq qolmoqda. Bu holat postmodern falsafada subyektning tarqoqligi haqidagi g'oyalar bilan uyg'un bo'lsa, neyrofalsafada qaror qabul qilishning neyron va texnologik determinantlarini qiyosiy tahlil qilishga ehtiyoj tug'diradi.

Demak raqamli sivilizatsiya sharoitida zamonaviy falsafada ongga oid postmodern va neyrofalsafa qarashlari dinamikasi ongning algoritmlashuvi va gibridlashuvi, subyektning raqamli fragmentatsiyasi, diqqat va xotira mexanizmlarining transformatsiyasi, emotsiya va motivatsiyaning tashqi raqamli rag'batlar bilan bog'lanishi, ong, erkinlik va mas'uliyat munosabatlarining qayta talqin qilinishi kabilardan namoyon bo'lmoqda.

XULOSA

Zamonaviy falsafada ong muammosi postmodern falsafa va neyrofalsafa doirasida yangi mazmun kasb etmoqda. Klassik falsafada ong yaxlit, barqaror va avtonom mohiyat sifatida talqin etilgan bo'lsa, bugungi ijtimoiy, madaniy va

texnologik sharoitda bunday yondashuv o'z cheklovlarini namoyon qilmoqda. Raqamli sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi inson ongini anglashda falsafiy tahlilni fanlararo yondashuvlar bilan boyitish zarurligini ko'rsatmoqda.

Postmodern falsafada ong diskursiv va muayyan jarayonga bog'liq fenomen sifatida namoyon bo'lib, sub'ektning mutlaq asos sifatidagi maqomi zaiflashib borayotgani namoyon bo'lmoqda. Raqamli muhitda inson ongi turli identifikatsiya modellari, virtual rollar va algoritmik ta'sirlar kesishmasida shakllanadigan ochiq tizimga aylanmoqda. Bu holat shaxsiy identifikatsiya muammosini zamonaviy falsafiy fikr asosiga olib chiqib, ongni barqaror mohiyat emas, balki doimiy qayta shakllanuvchi jarayon sifatida anglashga olib kelmoqda. Neyrofalsafada esa ong miya faoliyati va neyron jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilinib, uning tabiati biologik va texnologik omillar ta'sirida qayta ko'rib chiqilmoqda. Neyrotexnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlari inson ongini faqat tabiiy fenomen emas, balki biologik va texnologik tizimlar o'zaro ta'sirida vujudga keluvchi gibridd voqelik sifatida anglash imkonini bermoqda. Bu holat ongning avtonomligi, erkinlik va mas'uliyat masalalarini yangi falsafiy nuqtai nazardan baholashni taqozo etadi.

Ta'lim tizimi inson ongini shakllantirishda hal qiluvchi ijtimoiy institut sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Biroq ta'limning tijoratlashuvi, ijtimoiy tengsizlik va ideologik bosim inson ongining ijodiy va mustaqil rivojlanishi uchun jiddiy to'siqlarga aylanmoqda. Shu sharoitda ta'limni faqat bilim uzatish vositasi sifatida emas, balki tanqidiy fikrlash, ma'naviy barqarorlik va intellektual mustaqillikni shakllantiruvchi muhit sifatida qayta anglash zarurati yuzaga kelmoqda. Umuman olganda, postmodern falsafa va neyrofalsafa doirasida ongga oid qarashlar o'rtasidagi dinamika qarama-qarshilik emas, balki o'zaro to'ldiruvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida ongni anglash falsafiy, neyrobiologik, ijtimoiy va madaniy tahlillarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilgandagina inson ongini passiv va boshqariladigan ob'ektga aylanib qolishdan saqlab qolish mumkin. Ana shu kompleks yondashuv insonni ijodiy, mas'uliyatli va ma'naviy barqaror sub'ekt sifatida asrab qolishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

BIBLIOGRAFIYA

1. Авлоний (1917) Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, б. 45.
1. Başer (2015) Dijital Çağda Bilincin Parçalanması. – İstanbul, б.123.
2. Ильенков (1984) Философия и культура. – Москва: Политиздат, с.123.
3. Кара-Мурза (2009) Манипуляция сознанием. – Москва, с. 155.
4. Касимжанов (1998) Философия культуры и мышления. – Алма-Ата, с. 45.
5. Лекторский (2012) Философия, познание, культура. – Москва, с. 88.
6. Mannheim (1936) Ideology and Utopia. – London, p. 234.
7. Marx & Engels (1846) Die deutsche Ideologie, – p. 66.
8. Məmmədzadə (2017) Şəxsiyyət və identiklik problemləri. – Bakı, б. 78.

9. Нысанбаев (2010) Философия культуры и цивилизации. – Алматы, с. 46.
10. Зинченко (2002) Психология сознания. – Москва, с. 46.
11. Ильенков (1984) Философия и культура. – Москва: Политиздат, с.77.
12. Mannheim (1936) Ideology and Utopia. – London: Routledge, p. 80.
13. Marx & Engels (1846) Die deutsche Ideologie, P. 68.
14. Comenius (1657) Didactica Magna. – Amsterdam, p. 93.
15. Plato (1997) The Republic. – Cambridge: Hackett Publishing, p.56.
16. Heidegger (1962) Being and Time. – Oxford: Blackwell, p. 67.
17. Jung (1968) The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton: Princeton University Press, p.55.
18. Berger & Luckmann (1966) The Social Construction of Reality. – New York: Anchor Books, p. 34.
19. Мамардашвили (1990) Как я понимаю философию. – Москва: Прогресс, с.20.

Кодиров Жавлонбек Абдусаттор угли

преподаватель-исследователь

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Электронная почта: javlonkodirov06@gmail.com

ORCID: 0000-0002-5429-2112

(Ташкент, Узбекистан)

ДИНАМИКА ВЗГЛЯДОВ НА СОЗНАНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ: ПОСТМОДЕРНИСТСКИЕ И НЕЙРОФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. В современной философии проблема сознания проходит сложный эволюционный путь от классических метафизических подходов к постмодернистским дискурсивным интерпретациям и научно-эмпирическим концепциям нейрофилософии. В рамках данного процесса понимание сознания формируется на основе интеграции философской рефлексии с нейробиологией и когнитивными науками. Однако между релятивистскими интерпретациями постмодернистской философии и редуционистскими позициями нейрофилософии сохраняются серьезные теоретические и методологические проблемы. Целью исследования является сравнительный анализ данных подходов и выявление динамики современных философских представлений о сознании.

Ключевые слова: сознание, постмодернистская философия, нейрофилософия, дискурс, нейробиология, философский анализ.

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

lecturer-researcher

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: javlonkodirov06@gmail.com

ORCID: 0000-0002-5429-2112

(Tashkent, Uzbekistan)

**THE DYNAMICS OF VIEWS ON CONSCIOUSNESS IN
CONTEMPORARY PHILOSOPHY: POSTMODERN AND
NEUROPHILOSOPHICAL APPROACHES**

Abstract. In contemporary philosophy, the problem of consciousness has undergone a complex evolutionary trajectory, moving from classical metaphysical approaches to postmodern discursive interpretations and the scientific-empirical concepts of neurophilosophy. Within this process, the understanding of consciousness is shaped through the integration of philosophical reflection with neurobiology and cognitive sciences. However, significant theoretical and methodological problems remain between the relativistic interpretations of postmodern philosophy and the reductionist positions of neurophilosophy. The purpose of this study is to conduct a comparative analysis of these approaches and to reveal the dynamics of modern philosophical conceptions of consciousness.

Keywords: consciousness, postmodern philosophy, neurophilosophy, discourse, neurobiology, philosophical analysis.

